


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT  
SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**“Kiritdi”**

**O‘zbekiston davlat  
san‘at va madaniyat  
instituti rektori**

  
**N.B. Sayfullayev**

**“01” 06 2024-y**

**“Kelishildi”**

**O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta‘lim, fan va  
innovatsiyalar vazirligi**



**“01” 06 2024-y**

**“Tasdiqlayman”**

**O‘zbekiston Respublikasi  
Madaniyat vazirligi**



**“01” 06 2024-y**

**KASBIY (IJODIY) IMTIHON DASTURI  
VA BAHOLASH MEZONI**

**60211000 – San‘atshunoslik: kino san‘ati tanqidi va tahlili  
ta‘lim yo‘nalishi uchun**

- 1. Kinoshunoslik fanidan**
- 2. Kinodramaturgiya fanidan**

**Toshkent-2024**

Dastur O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Badiiy, o‘quv - uslubiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2024-yil \_\_ \_\_\_\_\_ \_\_ - sonli majlis bayoni.

**Tuzuvchilar:**

A.Z.Rizayev – O‘zDSMI “San’atshunoslik” kafedrası professori, san’atshunoslik fanlari nomzodi

F.M.Abduvohidov – O‘zDSMI “San’atshunoslik” kafedrası dotsenti, (PhD)

**Taqrizchilar:**

M.T.To‘laxo‘jayeva – O‘zDSMI “San’atshunoslik” kafedrası professori, san’atshunoslik fanlari doktori

A.H.Ismoilov – San’atshunoslik instituti teatr va xoreografiya bo‘limi mudiri, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

## **Kirish**

60211000 – San’atshunoslik: kino san’ati tanqidi va tahlili bakalavriyat ta’lim yo’nalishiga kiruvchi abituriyentlarning kasbiy (ijodiy) imtihoni, me’yoriy-huquqiy xujjatlar asosida shakllantiriladi va kirish imtihonlari unga muvofiq o’tkaziladi.

Ixtisoslik bo’yicha kirish imtihonlari, har bir ixtisoslik uchun ta’kidlangan qabul talablariga muvofiq ravishda o’tkaziladi.

Ixtisoslik bo’yicha imtihon o’tkazilishining ketma-ketligi, institut qabul komissiyasi tomonidan belgilanadi va har yili qabul qilish qoidalari shakllantiriladi.

60211000 – San’atshunoslik: kino san’ati tanqidi va tahlili, san’at sohasidagi ta’lim yo’nalishi bo’lib u o’z ichiga kino san’atining zamonaviy va tarixiy jarayonlarini o’rganishni, kino san’atidagi voqea va hodisalar haqida xulosalar chiqarishni, tarixiy va zamonaviy mavzularda olingan filmlarning mavzusi, g’oyaviy mazmuni, insonlar ongiga ma’naviy-ma’rifiy ta’sir kuchini, ahamiyatli jihatlarini, muammo va yechimlari to’g’risida ilmiy va muammoli maqolalar yaratish, kino san’ati to’g’risida ilmiy-ommabop adabiyotlar, turli kinofilmlar haqida taqrizlar yozish, kino va kino ijodkorlari haqida fundamental ilmiy tadqiqotlar olib borish, kino san’atining ijodiy jarayonlari, yutuq va muammolari xususida tadqiqotlar olib borish, olingan natijalarni OAVda keng yoritib borish majmuini qamrab oladi.

## **Fanning maqsad va vazifalari**

60211000 – San’atshunoslik: kino san’ati tanqidi va tahlili ta’lim yo’nalishida kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning kinoshunoslik va kinodramaturgiya fanlaridan ijodiy - ilmiy ko’nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o’tkaziladi.

Abituriyentlar ixtisoslikning quyidagi asosiy kinoshunoslik va kinodramaturgiya fanlaridan kasbiy (ijodiy) imtihon topshiradi.

## **Kinoshunoslik fani bo’yicha**

Kinoshunoslik fanidan kirish imtihonida abituriyent berilgan savollarga og’zaki javob berishi kerak. Savol-javobda abituriyent o’z salohiyatini ko’rsatishi lozim. Savol - javob kino san’ati sohasiga tegishli mavzular doirasida o’tkazilib, suhbat jarayonida ixtisoslik bo’yicha abituriyentning dunyoqarashi, fikrlash darajasi, qobiliyati kasbiy tasavvuri tekshiriladi.

Kinoshunoslik faniga qo’yiladigan talablar:

- kino san’ati to’g’risida umumiy tasavvurga ega bo’lishi;
- kinoning vujudga kelishi, shakllanish jarayonlari, asoschilari va yirik namoyandalarini bilishi;
- kinoning turlari va janrlari;
- kino san’atining o’ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo’lishi;
- kino va televizion filmlarni farqlay olishi;

- kinofilmlarni tahlil qila olishi;
- o‘zbek milliy kinosining namoyandalari (kinossenarist, rejissor, operator, aktyor va boshqalar) haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- zamonaviy kino jarayonidan xabardorligi;
- dublyaj san’ati haqida tushunchaga ega bo‘lishi;
- o‘zbek animatsion filmlarni bilishi va tahlil qilishi;
- qisqa metrajli filmlar haqidagi tasavvuri;
- jahon va o‘zbek kinofestivallaridan xabardorligi;
- kino san’atiga oid adabiyotlarni o‘rganganligi;
- tajribali kinoshunoslar faoliyatidan xabardorligi;
- dunyoqarashi, muomala madaniyati va bilimni bayon qilish mahorati sinovdan o‘tkaziladi.

### **Kinodramaturgiya fani bo‘yicha**

Kinodramaturgiya fanida abiturentning ssenariylarning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish qobiliyati sinaladi. Kinodramaturgiya bo‘yicha tasavvur va tahlil qilish imkoniyatlarini hamda tushunchalarini suhbat jarayonida namoyon etadi.

Kinodramaturgiya faniga qo‘yiladigan talablar:

- kinodramaturgiya haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lishi;
- kinodramaturgiyaning tarixi va shakllanish bosqichlari;
- kinodramaturgiyaning o‘ziga xos xususiyatlari;
- kinodramaturgiyaning tur va janrlari;
- filmning g‘oyaviy va badiiy jihatlari xususidagi tasavvuri;
- filmda ilgari surilgan mavzuni anglay olishi;
- jahon va o‘zbek kino dramaturglari ijodidan xabardorligi;
- kinossenariyning sahna uchun mo‘ljallab yozilgan pyesadan farqi va o‘xshash tomonlarini anglay olishi;
- kinossenariyni tahlil qilaolish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- tarixiy va zamonaviy film xususiyatlarini farqlay olishi;
- ssenariy muallifining rejissyor bilan hamkorligi va filmni sur‘atga olish jarayonlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- badiiy va hujjatli filmlarni bir-biridan farqlay olishi sinovdan o‘tkaziladi.

### **Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar**

**Kinoshunoslik** fanidan kirish imtihonida abituriyent berilgan savollarga og‘zaki javob berishi kerak. Savol-javob kino san’ati sohasiga tegishli mavzular doirasida o‘tkazilib, suhbat jarayonida ixtisoslik bo‘yicha abituriyentning dunyoqarashi, fikrlash darajasi, qobiliyati kasbiy tasavvuri tekshiriladi.

**Kinoshunoslik** fanidan abituriyentlarga qo‘yiladigan talablar: kino san’ati to‘g‘risida umumiy tasavvurga ega bo‘lishi, kinoning vujudga kelishini, shakllanish jarayonlarini, asoschilari va yirik namoyandalarini, kinoning turlari va janrlarini, kino

ijodkorlar haqida tasavvurga egaligini, kino va televizion filmlarni farqlay olishini, kino asarlarini tahlil qila olishini, o'zbek milliy kinosining darg'alarini (kinossenarist, rejissor, operator, aktyor va boshqalar) haqida tasavvurini, zamonaviy kino jarayonidan xabardorligini, o'zbek animatsion filmlarini bilishi va tahlil qilish qobiliyatini, qisqa metrajli filmlar haqidagi tasavvurini, jahon va o'zbek kinofestivallardan xabardorligini, kino san'atiga oid adabiyotlarni o'rganganligini, tajribali kinoshunoslar faoliyati va ularning ilmiy izlanishlaridan xabardorligini bayon qilishi kerak.

**Kinodramaturgiya** fanidan abituriyent kinodramaturgiya haqida umumiy tasavvurga ega bo'lishi, kinodramaturgiyaning tarixi va shakllanish bosqichlari, kinodramaturgiyaning o'ziga xos xususiyatlari, kinodramaturgiyaning tur va janrlari haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak.

Jahon va o'zbek kino dramaturglari ijodidan xabardorligini, kinossenariyning sahna uchun mo'ljallab yozilgan pyesadan farqi va o'xshash tomonlarini, kinossenariyni tahlil qilaolish qobiliyatiga egaligini, tarixiy va zamonaviy film xususiyatlarini farqlay olishini, ssenariy muallifining rejissor bilan hamkorligi va filmni sur'atga olish jarayonlari haqida tasavvurga egaligini, badiiy va hujjatli filmlarni bir-biridan farqlanishini bilishi kerak.

### **Kasbiy (ijodiy) imtihonlar quyidagi mezon asosida baholanadi:**

#### **Kinoshunoslik fani bo'yicha**

<b>T.r.</b>	<b>Talabning mazmuni</b>	<b>Maksimal ball</b>
1.	Kinoning vujuga kelishi, asoschilari va yirik namoyandalari haqidagi tasavvuri	10
2.	Zamonaviy o'zbek kino san'atining ijodiy-tashkiliy jarayonlaridan xabardorligi	9
3.	Kino va telefilmlarning farqi va o'xshash jihatlarini bilishi	10
4.	O'zbek milliy kinosining yetuk namoyandalari (kinossenarist, rejissor, operator, aktyor va boshqa)lar ijodini bilishi	10
5.	Badiiy va hujjatli filmlarni farqlash va tahlil qilish qobiliyati	10
6.	Animatsion va qisqa metrajli filmlar xususiyati haqidagi tasavvuri	10
7.	Nufuzli xalqaro va Milliy kinofestivallardan xabardorligi	8
8.	Kino san'atiga oid adabiyotlarni o'rganganlik darajasi	10
9.	Yetuk kinoshunoslar faoliyatidan xabardorlik darajasi	10
10.	Abituriyentning dunyoqarashi, muomala madaniyati va bilimni bayon qilish qobiliyati	6
	<b>Hammasi</b>	<b>93</b>

## Kinodramaturgiya fani bo'yicha

<b>T.r.</b>	<b>Talabning mazmuni</b>	<b>Maksimal ball</b>
1.	Kinodramaturgiya haqidagi umumiy tasavvuri	6
2.	Kinodramaturgiyaning tarixi va bugungi holatini bilish darajasi	6
3.	Kinodramaturgiyaning o'ziga xos xususiyatlari tur va janrlarini bilishi	7
4.	Kinossenariy mavzusi va g'oyaviy mohiyatini ochib berish mahorati	6
5.	Jahon va o'zbek kino dramaturglari ijodidan xabardorligi	6
6.	Sahna va kinodramaturgiyaning farqi va o'xshash jihatlarini anglashi	6
7.	Filmni suratga olishda senariy muallifi, postonovkachi rejissor va operatorning o'zaro hamkorligi haqidagi tushunchasi	7
8.	Badiiy va hujjatli filmlarni bir-biridan farqlay olishi	6
9.	Yosh kinodramaturglar ijodidan xabardorlik darajasi	6
10.	Kino san'atining badiiy, estetik va tarbiyaviy ahamiyati haqidagi tushunchasi	7
	<b>JAMI</b>	<b>63</b>

### **Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi**

60211000 – San'atshunoslik: kino san'ati tanqidi va tahlili ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlar uchun jadval asosida belgilangan kunlarda ikkita fandan iborat ijodiy imtihonlar bo'lib o'tadi.

Ijodiy imtihonlar qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlarda suhbat, savol – javob asosida maxsus jihozlangan xonalarda o'tkaziladi.

### **Apellyatsiya tartibi**

Abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hayotiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat ichida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, boshqa abituriyent haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

## **Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari**

1. Mirziyoyev.Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2021.
2. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish-xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning muhim poydevoridir. Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil, 4 avgust, 153-son.
3. “Madaniyat va san’at sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. – T.: 2017-yil 15-fevral.
4. Aliyev M. Kino asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1993.
5. Akbarov H. Kino san’ati tarixi. – T.: Islom unversiteti. 2005.
6. Akbarov H. Kinoteledramaturgiya asoslari. – T.: Ilim ziyo. 2006.
7. Abulqosimova X. Kino san’ati asoslari. –T.: Fan va texnologiyalar, 2009.
8. Aleksandr Mitta. Kinoda dramaturgiya va rejissura. – T.: Fan va texnologiyalar, 2009.
9. Abulqosimova X, Umarov S. Kinodramaturgiya asoslari. – T.: Turon Iqbol, 2018.
10. Isoqova M. Kino va televideniye tarixi. –T.: Fan va ta’lim poligraf. 2021.
11. Isoqov A. Kinomatogirafiya tarixi. –T.: Turon Iqbol. 2019.
12. Muxamedov M., Fayziyeva F., Ablyayeva V. Televideniye asoslari. – T.: Voris. 2009.
13. Teshaboyev J., Abulqosimova X. Kinoiskusstvo Uzbekistana. – T.: Fan va texnologiyalar, 1986.
14. O‘zbekiston milliy ensiklopediya 1 – 12 jildlar.
15. Xaytmatova S. Kinoshunoslik. – T.: Fan va ta’lim poligraf. 2020.

### **Internet saytlari**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz),
2. [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com),
3. [www.uzbekkino.uz](http://www.uzbekkino.uz),
4. [www.cinema.uz](http://www.cinema.uz),
5. [www.kino-teatr.ru](http://www.kino-teatr.ru)
6. [ttp://www.dsmi.uz](http://www.dsmi.uz)